

Date: 27th July-2026

YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASINING HUQUQIY ONG VA HUQUQIY
MADANIYAT SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Alimuxammadova Gulsevar Xaydar qizi

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya : Mazkur maqolada yosh davrlari psixologiyasining shaxsda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonidagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Unda shaxsning ontogenetik rivojlanish bosqichlari, yoshga xos psixologik xususiyatlari, kognitiv, emotsional-qadriyatli va xulq-atvor komponentlarining huquqiy tasavvurlar, huquqiy bilim, huquqiy e’tiqod va huquqiy xulq-atvor rivojiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, bolalik, o‘smirlik, o‘spirinlik va ilk yetuklik davrlarida huquqiy ongning shakllanish dinamikasi hamda ushbu jarayonda oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy muhitning psixologik-pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqotda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda huquqiy tarbiyani differensiallashtirish, shaxsning huquqiy mas’uliyatini rivojlantirish va qonuniy xulq-atvor motivlarini mustahkamlashning ilmiy-metodik asoslari asoslangan. Maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning samaradorligi shaxsning yosh davriga xos psixologik mexanizmlarni chuqur o‘rganish va ulardan maqsadli foydalanish bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: yosh davrlari psixologiyasi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy tarbiya, huquqiy bilim, huquqiy e’tiqod, huquqiy xulq-atvor, yosh xususiyatlari, shaxs rivojlanishi, huquqiy mas’uliyat, ijtimoiylashuv, psixologik mexanizmlar.

Аннотация: В статье теоретически и научно проанализирована роль возрастной психологии в процессе формирования правового сознания и правовой культуры личности. Раскрывается влияние этапов онтогенетического развития и возрастных психологических особенностей личности, а также когнитивных, эмоционально-ценностных и поведенческих компонентов на развитие правовых представлений, правовых знаний, правовых убеждений и правомерного поведения. Особое внимание уделяется динамике формирования правового сознания на этапах детства, подросткового, юношеского и раннего зрелого возраста, а также психолого-педагогическим возможностям семьи, образовательных учреждений и социальной среды в данном процессе. Обосновывается необходимость дифференцированного подхода к правовому воспитанию с учетом возрастных особенностей личности, развития правовой ответственности и укрепления мотивации к законопослушному поведению. В статье научно аргументируется положение о том, что эффективность формирования правового сознания и правовой культуры непосредственно связана с глубоким изучением возрастных психологических механизмов развития личности и их целенаправленным использованием в образовательном и воспитательном процессе.



Date: 27th July-2026



Ключевые слова: возрастная психология, правовое сознание, правовая культура, правовое воспитание, правовые знания, правовые убеждения, правомерное поведение, возрастные особенности, развитие личности, правовая ответственность, социализация, психологические механизмы.

Abstract: This article provides a theoretical and scientific analysis of the role of developmental psychology in the formation of legal consciousness and legal culture of an individual. It examines the influence of ontogenetic stages of development and age-specific psychological characteristics, as well as cognitive, emotional-value, and behavioral components, on the development of legal perceptions, legal knowledge, legal beliefs, and lawful behavior. Particular attention is paid to the dynamics of legal consciousness formation during childhood, adolescence, youth, and early adulthood, as well as to the psychological and pedagogical potential of the family, educational institutions, and social environment in this process. The study substantiates the importance of differentiating legal education in accordance with age-related characteristics, developing an individual's sense of legal responsibility, and strengthening motives for law-abiding behavior. The article scientifically argues that the effectiveness of developing legal consciousness and legal culture is closely associated with a comprehensive understanding of age-specific psychological mechanisms of personality development and their purposeful application in educational and upbringing processes.

Keywords: developmental psychology, legal consciousness, legal culture, legal education, legal knowledge, legal beliefs, lawful behavior, age-related characteristics, personality development, legal responsibility, socialization, psychological mechanisms.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi bosqichida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Rivojlanish har daqiqa va har sohada ko‘zga tashlanmoqda, bugun biz insoniyat uzoq yillik rivojlanishida orzu qilgan eng ideal zamon va makonda yashayapmiz, negaki biz qanchalik taraqqiy etgan zamon va makonda yashamaylik, inson kamoloti, shaxs tarbiyasi, uning haq-huquqlarini o‘rganish o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi va shu ma’noda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari o‘zining qimmatini hech qachon yo‘qotmaydi: *“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odoq-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan rivojlanyapti va bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, kimlarning avlodimiz, degan da‘vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz ? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan... agar, mendan sizni nima qiynaydi, - deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman”*. Darhaqiqat, mamlakatimizning ertangi qiyofasi faqatgina yoshlar tarbiyasi va ularning diniy va dunvoviy bilimlar bilan qurollanganmi, yo‘qmi, ayniqsa, o‘zining haq-huquqlarini biladimi, yo‘qmi, ostona hatlab ko‘chaga chiqqudek bo‘lsa, qaysi yosh davriga mansub bo‘lmasin, o‘zining burch va majburiyatlari,

Date: 27th July-2026



huquqlarini biladimi, kimdir uning huquqlarini poymol qilishiga yo‘l qo‘yadimi yoki yo‘qmi, agar huquqlari poymol etilgan taqdirda qay yo‘sinda o‘z huquqlarini talab qila oladi? O‘zi huquqiy madaniyat shakllanganmi? Yoki sodir bo‘layotgan hodisalarga o‘z pozitsiyasida turib, to‘g‘ri yondashadimi, to‘g‘ri xulosa chiqara oladimi, nimadir ishga qo‘l urganda buning qonuniy, huquqiy asoslari qanday, farqiga boradimi? Bugun jamiyatimizda ro‘y berayotgan turli hodisalar, ijtimoiy tarmoqlarning qiyofasi ushbu savollar va ularning javoblari juda dolzarb ekanligini ko‘rsatib turibdi. Chunki shaxs tarbiyasi aytib o‘tilganidek, qiymatini yo‘qotmaydigan azaliy va abadiy mavzu bo‘lib qolaveradi. Shu ma’noda bugun biz yosh davrlari psixologiyasining huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishidagi o‘rni haqida o‘z mulohazalarimizni aytib o‘tamiz.

Ma’lumki, yosh davrlari psixologiyasi quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologiyasi;
2. O‘smir psixologiyasi;
3. Ilk o‘spirinlik yosh psixologiyasi;
4. Katta yoshdagilar psixologiyasi;
5. Gerontopsixologiya.

Mavzu yuzasidan, ya’ni huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishida yosh davrlari psixologiyasi haqida so‘z borar ekan, eng dolzarb davr bo‘lgan dastlabki bosqichlar, ya’ni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologiyasi, o‘smir psixologiyasi va ilk o‘spirinlik yosh psixologiyasi davri, fikrimizcha, huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishida eng muhim bosqich hosoblanadi. Chunki shaxs rivojlanishining ilk bosqichlari dunyoni tanish, atrofni o‘rganish uchun muhim bosqichdir. Shu sababdan ilk huquqiy madaniyat va huquqiy ongning ko‘rinishlari ham aynan shu bosqichda paydo bo‘ladi va shakllanadi. Masalan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologiyasiga bosqichi 1-4-sinf o‘quvchilari, ya’ni 7-10 yoshdagi bolalar bilan bog‘liq bo‘lib, huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ilk shakllanishi, tasavvurlar paydo bo‘lishi ham bolaning jamiyat bialn muloqotga kirishuvi, o‘rtoqlari, sinfdoshlari bilan bo‘ladigan munosbatlarda ko‘rinadi va bu jarayonda o‘qituvchi va ayniqsa, ota-ona tushuntirishi, tushuncha berganda to‘g‘ri yodashishi juda muhim. Chunki bola oiladan, kichik munosbatlardan jamiyatga, sinfga, jamoaga aralashmoqda bu esa o‘z-o‘zidan bola ba’zan kimdir tomonidan xafa qilinishi, yoki biror shaxsiy buyumini o‘g‘irlatishi tabiiy hol bo‘lib, huddi shu jarayonda ota-ona yoki pedagog tomonidan berilgan e’tibor, maslahat va tarbiya aynan kichik maktab yoshidagi bolada huquqiy ong paydo bo‘lishi, rivojlanishining ilk ko‘rinishidir. Bu davr ota-ona yoki pedagogdan e’tiborlli bo‘lishni, bolaning savollariga erinmasdan javob berishni, uni o‘z holiga tashlab qo‘ymaslikni talab etadi, negaki bola har bir hodisani o‘zicha idrok etadi, ko‘pgina munosabatlarda uning o‘z qarashi, tasavvuri aynan kattalar orqalil shakllanadi. Bu - mening hududim, bu- mening buyumim, bu - birovniki, birovning narsasini olib qo‘yish kerak emas, bu-yomon odat, tarzidagi qoidalar aynan kichik yoshdagi bolalar psixologiyasida huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishining ilk ko‘rinishlaridir va bu o‘z navbatida keying davr uchun bolani tayyorlash jarayonidir, deb aytish mumkin. Bola o‘zining xohish-

Date: 27th July-2026



ehtiyojlarini amalga oshirar ekan, chegara degan tushuncha borligini anglaydi, tushunib yetadi. Menga hamma narsa mumkin degan fikr bo'lmaydi, jamiyatdagi qoidalarga bo'ysuna boshlaydi, bir so'z bilan aytganda, kelajakda jamiyatdagi qonunlar bilan hisoblashadigan shaxs shakllanib boradi. Bu davlat va jamiyat uchun manfaat keltiradi. Shu boisdan yosh davrlari psixologiyasini o'rganish va tadqiq etishda muhim takliflarni berish, jamiyatdagi huquqiy bilim va huquqiy madaniyatning yetishmasligiga oid kamchiliklarni bartarf etish borasida ishlaydigan, natija beradigan yechimlarni ko'rsatish juda dolzarb masaladir. Bu jarayon faqat kichik maktab yoshidagi bolalar davri psixologiyasi emas, o'smirlik va ilk o'spirinlik davri psixologiyasi bosqichida ham juda muhim hisobalanadi va aynan ushbu davrda jinoyatchilikka adashib yoki bilmay, ba'zan bilib turib qadam qo'yish holatlarining oldini olish uchun bu davr psixologida qaysi jihatlariga e'tibor berish lozinligi, bu davrning o'ziga xosliklarini inobtag olib, qanday tavsiya va yechimlar ko'rsatish ham muhim va har bir davr uchun dolzarb. Aytib o'tganimizdek, kichik yoshdagi bolalar psixologiyasi davridagi to'g'ri yondashuv undan keying bosqichda ham qo'l keladi. O'smir yoshdagi bolalar psixologiyasida huquqiy ong shakllanishida bilim egallashga targ'ib qilib, shaxsiy namuna ko'rsatish, bo'sh vaqtdan unumli foydalanishni nazorat qilish juda muhimdir. Shuningdek, bolaning atrofida kimlar bor, u kimlar bilan uchrashyapti, kimlar bilan muloqot qilyapti, kabi jihatlar ham e'tibordan chetda qolmasligi muhim hisoblanadi, o'smir va o'spirinlik davrida asosan, bola qoidalarni biladi, unga amal qilmaslikka dangasalik yoki erinchoqlik, yoki ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik sabab bo'lishi mumkin.

Har bir yosh davrining muhim ekanligini inobatga olgan holda yosh davrlari psixologiyasining huquqiy ong va huquqiy madaniyat shakllanishidagi o'rni va ahamiyati haqida quyidagi xulosaga kelish mumkin: yosh davrlari psixologiyasining ilk bosqichi, ya'ni kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasida ota-ona va pedagog tomonidan bolaga singdirilgan qoidalar juda zarur. O'smir va o'spirinlik davri psixologiyasida nafaqt belgilab qo'yilgan qonun-qoidalar, balki shaxsiy namuna ko'rsatish, bolaning bo'sh vaqtdan unumli foydalanishga o'rgatish, ayniqsa, yot ta'sirlarga qarshi ma'naviy immunitet hosil qilishi uchun bilim bilan qurollantirish juda dolzarbdur va shaxsning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati yaxshi shakllangan bo'lsa, boshqalarning huuquqlarini ham hurmat qiladi, shaxsning huquqiy madaniyati rivojlangan bo'lsa, jamiyatda muammolarga duch kelmaydi, agar duch kelganda ham uning yechimini topa oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Lex.uz Huquqshunoslik. Darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti.
4. Lex.uz Davlat va huquq nazariyasi. Darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nashriyoti.

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th July-2026

5. Lex.uz Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
6. Lex.uz O'zbekiston Respublikasida jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi. – Toshkent.



International Conferences
Open Access | Scientific Online | Conference Proceedings

